

## **“Yashil iqtisodiyot” bo‘yicha xalqaro anjuman**

Toshkentda Yevropa va MDH mamlakatlarining “yashil iqtisodiyot” bo‘yicha Ministrlar konferensiyasi bo‘lib o‘tdi. Tadbir “Yashil iqtisodiyot” bo‘yicha jahon tashkiloti tomonidan O‘zbekiston Respublikasi iqtisodiyot va sanoat vazirligi ko‘magida tashkil qilindi.

Anjuman doirasida umumiy yig‘ilishlar va maxsus sessiyalar o‘tkazildi. Ularda “yashil iqtisodiyot” sohasidagi dolzarb muammolar muhokama qilindi, xorijiy mamlakatlar vakillari yashil innovatsion texnologiyalarni keng joriy qilish, yashil moliyalashtirish, yashil harakatlar bo‘yicha milliy salohiyat yuzasidan o‘z tajribalari bilan o‘rtoqlashdilar.

Tadbirda respublikaning tegishli vazirlik va idoralari vakillari qatorida O‘zgidromet mutaxassisleri ham ishtirok etdi.

O‘zgidromet bosh direktorining birinchi o‘rinbosari B.Nishonov o‘z nutqida iqlim o‘zgarishi masalalari O‘zbekiston Respublikasi Hukumati kun tartibining asosiy bandlaridan biri ekanini ta’kidladi. Iqlim o‘zgarishi muammolarining muhimligini e’tirof etib, O‘zbekiston 1993 yilda BMTning Iqlim O‘zgarishi to‘g‘risidagi Doiraviy konvensiyasini, 2017 yilda Parij bitimini imzoladi. U mamlakatimizda 2018 yil 9 dekabrda kuchga kirdi.

O‘zbekiston Parij bitimiga qo‘shilib, uni malag oshirish bo‘yicha ma’lum majburiyatlarni o‘z bo‘yniga oldi. Bu - 2030 yilgacha uzoq muddatli istiqbolda O‘zbekiston Respublikasi iqlim o‘zgarishiga qarshi kurash chora va harakatlarni kuchaytirishi – 2030 yilga kelib issiqxona gazlari solishtirma tashlanmalarini 2010 yildagi darajaga nisbatan YaIM birligiga 10%ga qisqartirish vazifasidir.

Respublikada hozirda o‘zaro bog‘liq ekologik va iqtisodiy muammo va ehtiyojlar mavjud. Ular tabiiy resurslardan samarasiz foydalanish, iqlim o‘zgarishining salbiy ta’siri, chiqindilarni boshqarish, ekotizimlar degradatsiyasi kabi jihatlarni qamrab oladi.

Mavjud muammolarni hal etish uchun iqtisodiy rivojlanish jarayoniga iqtisodiyotning barcha tarmoqlarida kam-uglerodli rivojlanish va resurslarni tejashga, samarali va ekologik toza texnologiyalarni joriy etish va barqaror qishloq xo‘jaligiga yo‘naltirilgan “yashil iqtisodiyot” tamoyillarini integratsiya qilish orqali tabiiy va energiya resurslaridan foydalanish usullarini tubdan o‘zgartirish kerak.

Shu munosabat bilan O‘zbekistonda “yashil iqtisodiyot”ga o‘tish strategiyasi ishlab chiqilmoqda. Hozirgi vaqtga kelib hujjatni tegishli vazirliklar va idoralar bilan kelishish jarayoni amalga oshirilmoqda.

Anjuman doirasida “Yashil iqtisodiyot” bo‘yicha jahon tashkilotining barqaror rivojlanishga erishish yo‘lida “yashil iqtisodiyot”ni keng ko‘lamda tarqatish bo‘yicha treninglari o‘tkazildi.

## **“Яшил иқтисодиёт” бўйича халқаро анжуман**

Тошкентда Европа ва МДХ мамлакатларининг “яшил иқтисодиёт” бўйича Министрлар конференцияси бўлиб ўтди. Тадбир “Яшил иқтисодиёт” бўйича жаҳон ташкилоти томонидан Ўзбекистон Республикаси иқтисодиёт ва саноат вазирлиги кўмагида ташкил қилинди.

Анжуман доирасида умумий йиғилишлар ва махсус сессиялар ўтказилди. Уларда “яшил иқтисодиёт” соҳасидаги долзарб муаммолар муҳокама қилинди, хорижий мамлакатлар вакиллари яшил инновацион технологияларни кенг жорий қилиш, яшил молиялаштириш, яшил ҳаракатлар бўйича миллий салоҳият юзасидан ўз тажрибалари билан ўртоқлашдилар.

Тадбирда республиканинг тегишли вазирлик ва идоралари вакиллари қаторида Ўзгидромет мутахассислари ҳам иштирок этди.

Ўзгидромет бош директорининг биринчи ўринбосари Б.Нишонов ўз нутқида иқлим ўзгариши масалалари Ўзбекистон Республикаси Хукумати кун тартибининг асосий бандларидан бири эканини таъкидлади. Иқлим ўзгариши муаммоларининг муҳимлигини эътироф этиб, Ўзбекистон 1993 йилда БМТнинг Иқлим ўзгариши тўғрисидаги Доиравий конвенциясини, 2017 йилда Париж битимини имзолади. У мамлакатимизда 2018 йил 9 декабрдан кучга кирди.

Ўзбекистон Париж битимига қўшилиб, уни малаг ошириш бўйича маълум мажбуриятларни ўз бўйнига олди. Бу - 2030 йилгача узоқ муддатли истиқболда Ўзбекистон Республикаси иқлим ўзгаришига қарши кураш чора ва ҳаракатларни кучайтириши – 2030 йилга келиб иссиқхона газлари солиштирма ташланмаларини 2010 йилдаги даражага нисбатан ЯИМ бирлигига 10%га қисқартириш вазифасидир.

Республикада ҳозирда ўзаро боғлиқ экологик ва иқтисодий муаммо ва эҳтиёжлар мавжуд. Улар табиий ресурслардан самарасиз фойдаланиш, иқлим ўзгаришининг салбий таъсири, чиқиндиларни бошқариш, экотизимлар деградацияси каби жиҳатларни қамраб олади.

Мавжуд муаммоларни ҳал этиш учун иқтисодий ривожланиш жараёнига иқтисодиётнинг барча тармоқларида кам-углеродли ривожланиш ва ресурсларни тежашга, самарали ва экологик тоза технологияларни жорий этиш ва барқарор кишлоқ хўжалигига йўналтирилган “яшил иқтисодиёт” тамойилларини интеграция қилиш орқали табиий ва энергия ресурсларидан фойдаланиш усулларини тубдан ўзгартириш керак.

Шу муносабат билан Ўзбекистонда “яшил иқтисодиёт”га ўтиш стратегияси ишлаб чиқилмоқда. Ҳозирги вақтга келиб ҳужжатни тегишли вазирликлар ва идоралар билан келишиш жараёни амалга оширилмоқда.

Анжуман доирасида “Яшил иқтисодиёт” бўйича жаҳон ташкилотининг барқарор ривожланишга эришиш йўлида “яшил иқтисодиёт”ни кенг кўламда тарқатиш бўйича тренинглари ўтказилди.

## **Международный форум по “зеленой экономике”**

В Ташкенте прошла региональная Министерская конференция стран Европы и СНГ по “зеленой экономике”, организованная Всемирной организацией “зеленой экономики” при поддержке Министерства экономики и промышленности Республики Узбекистан.

В рамках конференции были проведены панельные и специальные сессии, в ходе которых были обсуждены актуальные вопросы в сфере “зеленой экономики”, а также обмен опытом с представителями зарубежных стран по распространению зеленых инновационных технологий, зеленому финансированию, национальному потенциалу зеленых действий и другим темам.

На мероприятии наряду со специалистами из ключевых министерств страны приняли участие представители Узгидромета.

В своем выступлении на панельной сессии первый заместитель генерального директора Б.Нишонов отметил, что

«Вопросы изменения климата являются неотъемлемой частью повестки дня Правительства Республики Узбекистан.

Признавая важность проблемы изменения климата, Узбекистан подписал в 1993 году Рамочную Конвенцию ООН об изменении климата, цель которой добиться стабилизации концентрации парниковых газов в атмосфере на таком уровне, который не допускал бы опасного антропогенного воздействия на климатическую систему».

В 2017 году Узбекистан подписал Парижское Соглашение, и в 2018 году оно было ратифицировано.

9 декабря 2018 года Соглашение вступило в силу для Узбекистана.

Тем самым страна взяла на себя количественные обязательства по его реализации, представив Определяемый на национальном уровне вклад (ОНВ)- снизить удельные выбросы парниковых газов на единицу ВВП на 10% к 2030 г. от уровня 2010 г.

В республике существует ряд взаимосвязанных экологических и экономических проблем и потребностей, среди которых неэффективное использование природных ресурсов, негативное воздействие изменения климата, управление отходами, деградация экологических систем.

Для решения существующих проблем необходимо радикально трансформировать способы использования природных и энергетических ресурсов посредством интеграции в процессы экономического развития принципов «зеленой экономики», которые нацелены на низко-углеродное развитие и ресурсосбережение во всех секторах экономики, внедрение эффективных, экологически чистых технологий и устойчивое сельское хозяйство.

В этом контексте в Узбекистане разрабатывается Стратегия перехода страны на «зеленую экономику». На данный момент документ находится на стадии согласования с причастными министерствами и ведомствами страны.

В рамках форума были проведены тренинги Всемирной организации “зеленой экономики” по масштабированию перехода на “зеленую экономику” на пути достижения устойчивого развития.





